

**ABDULLA QODIRIYNING “YIG’INDI GAPLAR” FELYETONIDA AKS
ETGAN IJTIMOIIY VA SIYOSIY MUAMMOLAR**

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz filologiyasi, o’qitish metodikasi
va tarjimashunoslik yo’nalishi
2-bosqich 215-guruh talabasi
Akbarova Mehriniso Mashrabjon qizi
Ilmiy maslahatchi: Xomidova Malohat*

Annotatsiya: 20-asr 20-yillari Sovet hukumatida ijtimoiy va siyosiy holat jadal rivojlanayotgan davr bo’ldi. Sovet hukumatining milliyalashtirish siyosati, maorif va iqtisodiy islohotlar insoniyat hayotiga yaxshi ta’sir ko’rsatishiga qaramay, xalq turmushida juda ko’plab muammolarni yuzaga chiqardi. Haqiqatdan ham o’sha vaqtlarda siyosat kuchli rivojlangan bo’lsa-da, bu rivojlanish inson huquqlari cheklanishi, erkinliklar to’qolishi hisobiga bo’lgan. Bunday davrda odamlarning qiyinchiliklari, oddiy aholining jamiyat taraqqiyotidagi ro’li Abdulla Qodiriy tomonidan satirik yumaristik ruhda ochib berilgan

Kalit so’zlar: O’zbeklashtirish, yerlilashtirish, Sovet Ittifoqi

Аннотация: 1920-е годы XX века стали периодом стремительного развития социального и политического положения в Советском Союзе. Несмотря на то, что политика национализации, а также реформы в сфере образования и экономики положительно влияли на жизнь общества, они привели к возникновению множества проблем в быту народа. Действительно, хотя в то время политика активно развивалась, это развитие происходило за счёт ограничения прав человека и свободы. В этот период Абдулла Кадыри в сатирико-юмористическом духе раскрыл трудности людей и роль простого народа в развитии общества.

Ключевые слова: узбекизация, коренизация, Советский Союз

Annotation: The 1920s were a period of rapid social and political development in the Soviet Union. Although the policies of nationalization and reforms in education and the economy had some positive effects on society, they also caused numerous problems in people’s daily lives. Indeed, even though politics developed strongly during that time, this progress came at the cost of restricting human Rights and freedoms. During such a period, Abdulla Qodiriy depicted people’s hardships and the role of ordinary citizens in Social progress through a satirical and humorous tone.

Key words: Uzbekization, indigenization, Soviet union

Asarda Abdulla Qodiriy jamiyatdagi loqaydlik, mas’uliyatsizlik va beparvolik kabi illatlarni tanqid ostiga olgan. Ba’zi bir siyosiy jarayonlar mamlakat taraqqiyotiga

kuchli ta'sir ko'rsatishiga qaramay, amaldorlar insonlarning turmush tarzini, qiyinchiliklarini umuman e'tiborga olishmagan. "O'zbeklashtirish" va "yerlilashtirish" kabi siyosiy-ijtimoiy holatlar umuman aholiga foyda keltirmaganligi bu felyeton orqali jamiyatga uqtirilgan. Bu asarda xalqni va amaldorlarni ijodkor "uxlab yotgan" odamlar tasvirida ochib berishga uringan. Ya'ni ijodkor "Bu o'lkada nima ko'p uxlaydirgan burchak ko'p, uxlab yotgan odamlar ko'p" deya ochiqqlagan. Sovet Ittifoqi davrida oddiy aholi kuchli ta'sir ostida qolganliklari sababli mamlakat inqirozga yuz tutishi mumkinligi ham mahorat bilan tasvirlangan.

Bu felyetonda bir qancha ko'zga ko'rinarli muammolar ham sanab o'tilgan. Ular quyidagilar:

1. Bolalarning savodsiz bo'lib qolayotganliklari
2. Xalqning achinarli turmush tarzi
3. Maktablarning yetishmasligi

Bunday chigal muammolar inson hayotini qamrab olgani, jamiyatimizda o'qitish muassalarining o'rni yuqori ekanligi va har bir insonda savodxonlik darajasi yetarlicha bo'lishi shartligi hazilomuz yo'llar bilan ommaga tatbiq etilgan. Agarda bu kabi muammolar o'z yechimini topmasa, aholini savodxonlik darajasi keskin pasayishi, jamiyat hayotida turli xil kelishmovchiliklar yuzaga kelishini ehtimoli yuqori ekanligi ham ochib berilgan. Nafaqat oddiy aholi, balki dehqonlar ham o'z ishiga ya'ni o'zlarini hayotiga beparvoligi tufayli jamiyat tubdan o'zgarib ketishi va ijtimoiy- iqtisodiy muammolar yanada ko'payishi ham bu felyetonda aks etgan. Buning natijasida mehnat samaradorligi pasayishi, hosildorlik sifatiga putur yetishi jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham yumoristik ruhda aks etilgan.

. "O'qig'uchilar bilan dardlashmaganimga ham qariyb bir yarim oy bo'ldi" adib bu felyetonni xuddi shunday so'zlar bilan boshlaydi ya'ni ijtimoiy muammolar hech yechimini topmagani, aholini savodxonlik darajasi keskin kamaygani kundan kunga sezilib borayotgani kinoya va hazil yo'llar bilan ifodalangan. Muallifni bunday boshlashi o'quvchini yanada jamiyatga chuqurroq nazar tashlashga undaydi va bu tarzda boshlanishi asarga tanqidiy ruh bag'ishlagan. Adibning kinoyali ohangi orqali jamiyatdagi sustkashlik, mas'uliyatsizlik va bilimga bo'lgan loqayd munosabatning oqibatlarini yorqin tasvirlanadi. Shu tariqa, felyeton nafaqat kulgi uyg'otadi, balki o'quvchini o'ylashga, jamiyatdagi muammolarga e'tiborli bo'lishga chaqiradi.

Abdulla Qodiriy o'sha davrda milliylashtirish siyosatini ilgari surmoqchi bo'lgani lekin hech qaysi amaldorlar e'tiborga olishmagani ham aytib o'tilgan. Adib milliy qadriyatlarimizni tiklash maqsadida juda ko'plab hujjat ishlari bilan shug'ullanganligi, afsuski, bu urinishlar puchga chiqqani ham tasvirlangan. O'zbek tilini rasmiy til sifatida qabul qilinishiyu, milliylikni saqlab qolish bo'yicha amalga oshirishga harakat qilganligi ham ifodalangan. Shunga qaramay, Qodiriy milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi faoliyatidan voz kechmaydi. U arxiv hujjatlari, tarixiy

manbalar, ma'rifiy maqolalar va adabiy asarlar orqali xalqning o'zligini eslatish, milliy ongni mustahkamlashga intiladi. Shuningdek, Qodiriy o'zbek tilining rasmiy til sifatida e'tirof etilishi uchun ham muntazam kurash olib boradi. Til — millatning ruhiy poydevori ekanligini chuqur anglagan adib, o'zbek tilining davlat idoralarida, maktablarda va jamiyat hayotining barcha jabhalarida qo'llanilishini ta'minlashga intiladi. U milliylikni saqlab qolish, madaniy merosni asrab-avaylash va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash bo'yicha ham muhim takliflar bergan.

Bu maqola jurnalda chop etilganidan so'ng Abdulla Qodiriy sudlanadi. "Rahbar xodimlarini obro'sizlantirish" moddasi bilan qoralanadi, jinoiy ish qo'zg'otiladi va 3 oylik tergov ishlaridan so'ng adib sudlanadi. Sudda Abdulla Qodiriy uzrnamo nutq so'zlaydi.

XULOSA: Abdulla Qodiriyning "Yig'indi gaplar" felyetoni nafaqat Sovet davrining, balki hozirgi davrning ham muammolarini yoritgan. Ijodkor bu felyetonida xalqning uyg'onishini, nohaqliklarga to'g'ri fikr bildirish kerakligini satirik usulda yoritib bergan. Uning bu asari mustamlakachilik siyosati qarshi kurash sifatida baholandi. Muallif asarda xalqning uyg'onishi, jamiyatdagi nohaqliklar va tartibsizliklarga befarq bo'lmaslik, ularga o'z vaqtida to'g'ri fikr bildirish zarurligini o'tkir satirik usulda yoritib bergan. Qodiriy mazkur felyeton orqali o'z davridagi mustamlakachilik siyosatini fosh qilgan, adolatsizlikka qarshi kurashishni badiiy vositalar orqali targ'ib qilgan. Shu bois, asar o'z davrida ham, bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan kuchli ijtimoiy-satirik asar sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy "Yig'indi gaplar"- "Mushtum" jurnali, 1926-yil
2. Rasulov.A. Abdulla Qodiriy va o'zbek romanchiligi-Toshkent 2004.
3. www.ziyouz.com- Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi
4. www.kutubxona.uz- "Yig'indi gaplar"